

## ONA TILI O'QITISH METODIKASINING ILMIY ASOSLARI VA TAMOYILLARI

*Ziyotova Dilafroz Uzakovna*

*Samarqand viloyati Jomboy tumani 3-umumta'lim maktabi ona tili  
va adabiyot fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8381167>

**Annotation:** *as a methodological subject in this article, the methodology of teaching the native language should provide ways in which teaching at school explains the social role of comprehensive knowledge of the language, which guarantees the good development of students' speech. So, growing speech is an important task of the school.*

**Keywords:** *language, native language, pedagogical psychology, literature, speech thinking, types of speech, signals receiving speech, orthography theory, language matter, phonetics, phonology, graphics.*

**Аннотация:** *В данной статье методика обучения родному языку как методической дисциплине должна предусматривать способы обучения в школе, объясняющие социальную роль всестороннего знания языка, гарантирующего хорошее развитие речи учащихся. Следовательно, развитие речи-важная задача школы.*

**Ключевые слова:** *язык, родной язык, педагогическая психология, литература, речевое мышление, виды речи, речевоприемные сигналы, теория орфографии, языковая материя, фонетика, фонология, графика.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi maktabda o'qitishning o'quvchilar nutqining yaxshi rivojlanishiga kafolat beradigan tilni har tomonlama bilishning ijtimoiy rolini tushuntiradigan yo'llari bilan ta'minlashi kerak. Demak, nutq o'stirish maktabning muhim vazifasidir.*

**Kalit so'zlar:** *Til, ona tili, pedagogik psixologiya, adabiyot, nutq tafakkur, nutq turlari, nutqni qabul qiluvchi signallar, orfografiya nazariyasi, til materiyasi, fonetika, fonologiya, grafika.*

### **KIRISH. (Introduction)**

Dunyoni bilish nazariyasi ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodikaning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligini har tomonlama to'liq bo'lib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni yodda tutushimiz lozim: til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir; tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas; tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi; maktabning vazifasi tilni aloqa-kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sadi. Amaliyot kishi bilimining manbai va harakatlantiruvchi kuchi, haqiqat mezoni va bilim tojidir. Analitek-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida og'zaki va yozma tarzidagi jonli nutqiy aloqaga, to'g'ri talaffuzga o'tadilar. Ular kuzatish jarayonida bilib olgan, uzlashtirgan qoidalarini amaliyotga tatbiq etadilar.

Metodika bilish nazariyasidan tashqari, yangi fanlar, xususan, psixologiya, pedagogika ma'lumotlariga tayanadi. Pedagogik psixologiya bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini, ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi. Metodika psixolingvistika bilan ham bog'liq. Metodikaga psixolingvistika nutq haqida, uni talab qiluvchi sabablar, nutq turlari, nutqni qabul qiluvchi signallar va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, metodika, didaktika, umumiy pedagogika bilan o'zaro bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasni ona tilning ma'lum qismini amaliy, ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi. Shuning uchun ona tili - lingvistika metodikasining muhim asosi hisoblanadi.

Savod o'rgatish metodikasini ishlashda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasallishini o'rganishda so'z yasallishi, etimologiya, grammatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishda, to'g'ri yozuvga o'rgatishga orfografiya nazariyasiga asoslanadi.

O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahdil qiladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va mazmunini, qurilishi, janri, tasvirik vositalarini hisobga olish zarur.

O'quvchilarga ona tilni o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarinikg to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshtuv va ko'ruv kursatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish printsiplari. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-xodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning xamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o'zaro bog'langan xolda o'rganish xisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan xoldagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasallishiga suyanadi va x.q. So'zni morfemik tomondan taxlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning xamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta xisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish prinsiplari. Til - juda murakkab xodisa, uning tuzilishini, sistemasini faxmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib uni yo'dda saqlab bilmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til xodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi : tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas,

balki soʻz va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottentkalarini ham tushunishni kuzda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabietlardan, shuningdek, tilning funksional-stilistik xususiyatlari anik ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Ogʻzaki nutkni yoema nutkdan oldin oʻzlashtirish tamoyili. Bu tamoyil xam kishi nutqining rivojlanishiga taʼsir etadi va til oʻqitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi oʻqituvchi bilan oʻquvchining maqsadga muvofik; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yoʻnalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri boʻlib xizmat qiladi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning tarixiy oʻrni va ahamiyatini inobatga olgan holda davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning uzviy davomi sifatida 2020 yil 10 aprel kuni Prezidentimiz tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbek tili bayrami kunini belgilash toʻgʻrisida”gi Qonuni imzolandi. Unga muvofiq 21 oktyabr sanasi yurtimizda “Oʻzbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Bu bilan davlat ramzlaridan biri sanalgan maʼnaviy qadriyatimiz – ona tilimiz qonun himoyasida ekanligi yana bir bor oʻz isbotini topdi. Ushbu bayramning mamlakatimizda keng nishonlanishi ona tilimizga eʼtiborni yuksaltirish, uning mukammaligi va boyligini koʻrsatib bera olish, nafaqat oʻzbek xalqi, balki boshqa millat vakillarini ham bebaho boyligimiz hisoblangan tilimiz va madaniyatimizni oʻrganishga ilhomlantirishda xizmat qiladi. Biz esa oʻz navbatida tilimizning pokligi va oʻziga xosligini saqlash, uni boyitish va takomillashtirishga oʻz hissamizni qoʻshmogʻimiz darkor. Zero, noyob xazinamiz - tilimizni asrash hammamizning burchimizdir. Shunday ekan, oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga doir hujjatlar ijrosini taʼminlash uchun Transport vazirligi va uning hududiy boʻlinmalari, idoraviy mansub tashkilotlarida rahbarning maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash masalalari boʻyicha maslahatchisi va hujjatlarning davlat tilida qatʼiy yuritilishini taʼminlash ishlari boʻyicha masʼul xodimlar tayinlandi, tegishli vazifalar belgilangan holda buyruqlar, chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi. Ona tilimizda yangrayotgan har bir soʻz, insonga oʻzgacha tuygʻu, oʻzgacha ishonch beradi, gʻayrfatimizga-gʻayrat, kuchimizga-kuch qoʻshadi. Tilimizdagi iliq, betakror, serjilo soʻzlar insonning qalb torlarini mohirona chertadi, betobni sogʻaytiradi. Bu haqiqat. Bir soʻz bilan insonga dunyolarni hadya etish mumkin yoki aksincha. Eng qattiq berilgan zarba bu til bilan boʻlar ekan. Xalqimizda bejizga “Tigʻ yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi” deyilmaydi.

Yaqin kunlarda insonni faxrlantiradigan, barcha oʻzbek xalqini etini jimirlatadigan voqeaning guvohiga aylandik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarlarida sof oʻzbek tilida nutq soʻzladilar. Bir yuz toʻqson uch davlat vakillari va dunyo televideniyasida oʻzbek tili yangradi.

Muhabbat, sadoqat koshonasida,

Humo qush parvozi peshonasida,

Uchinchi renessans ostonasida

BMTda yangragan Navoiy tili!

Tariximsan, taqdirimsan, kelajagimsan, ona tilim...

Tarixdan soʻz ochsalar, magʻrurlanadigan shonli tarixga egamiz. Hech ikkilanmay “Tarixim Navoiyning soʻzida, Qoshgʻariyning baytida, Boburning oʻtli ruboiylarida”, - deya olamiz. Taqdirim, shul Vatanning murgʻak farzandiman, u bilan qismatdoshman. Baxtim ham, iftixorim ham shu. Kelajakka ayta oladigan soʻzim bor, Bu omadim, Olloh

tomonidan berilgan imkoniyatdir. Men aminmanki, o`zbek tili mangu yashaydi. Yana ming yillar davomida qalblarnimizni zabt etaveradi.

***XULOSA. (Conclusion)***

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, til yashasa millat yashaydi. Zero millatning millat ekanligini bildirib turuvchi vosita bu - tildir. O`zbek tiliga davlat tili maqomining berishi davlatimiz mustaqilligi yo`lidagi dastlabki qadam bo`ldi. Bu esa mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun poydevor bo`lib xizmat qildi.

**Adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2010-y., 37-son, 313-modda
2. Toshkent sh., 2020-yil 20-oktabr, PF-6084-son
3. Ibrohim Haqqul. Mushohada yog`dusi. T- 2009.
4. Qilichev B., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.